

**SURXON VOHASI BESHİK TO'YLARINING O'ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI**

Umurqulov Kamoliddin

(Termiz davlat universiteti, Jahon tarixi kafedrası ilmiy tadqiqotchisi)

Tel: +998945104252

Anotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek oilalararida qadimdan mavjud bo'lgan an'analardan biri bo'lgan beshik to'yining surxon vohasidagi o'ziga xos ko'rinishi urf-odat va an'analar etnografik tahlil etilgan.

Tayanch so'zlar: Beshik to'yi, Chilla, Tabu, Etnik xususiyat, Sherobod, Denov, Boysun.

Аннотация: В статье дается этнографический анализ своеобразия облика, обычаев и традиций колыбельной свадьбы – одной из древних традиций узбекских семей – в Сурханском оазисе.

Ключевые слова: Детская свадьба, Чилла, Табу, Этнос, Шерабад, Денов, Бойсун.

Annotation: This article provides an ethnographic analysis of the unique appearance, customs, and traditions of the cradle wedding, one of the ancient traditions of Uzbek families, in the Surkhan oasis.

Key words: Crib wedding, Chilla, Taboo, Ethnicity, Sherabad, Denov, Boysun.

Oilaviy marosimlar xalq ma'naviyatining tarkibiy qismi, muhim axloqiy qadriyati, ta'sirchan tarbiya vositasi sanaladi. Oilaviy marosimlar jarayonida namoyon bo'ladigan axloq-odob, mehr-oqibat kabi xislatlar yoshlar ma'naviyati shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Xalq an'analari qadrlanadigan oilalarda tarbiya topgan yoshlar ibratli axloqi bilan boshqalardan ajralib turadi. Bunday oilalardan jinoyatchi, bezori kishilar chiqmaydi. Shu bois xalq an'analari va oilaviy urf-odatlar yordamida yoshlarni tarbiyalash muhim

ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, jamiyat asosini oila va uning a'zolari tashkil qiladi. Jamiyatning taraqqiyoti oila, shaxs rivojlanishi bilan belgilanadi. Marosim va bayramlar inson hayotining uzviy qismi hisoblanadi. Har bir kishining shaxsiy hayotida shunday muhim voqealar, bosqichlar mavjudki, ular alohida e'tibomi, xursandchilik taqozo etadi¹.

Farzand dunyoga kelishi inson hayotidagi anashunday muhim va o'ziga xos voqelik hisoblanadi. O'zbek oilalarida farzand dunyoga kelganidan toki voyaga yetguniga qadar turli xildagi urf-odat va marosimlar o'tkaziladi. Shunday marosimlardan biri "*beshik to'yi*" marosimidir. Beshik to'yi farzand tug'ilganidan keyin o'tkaziladigan eng muhim marosimlardan biri hisoblanadi. Beshik to'yi uzoq tarixiy davrlarga borib taqalib, Yaqin va O'rta Sharq hamda O'rta Osiyo xalqlari madaniyati va etnografiyasining o'ziga xos bir bo'lagiga aylanib qolgan. Bu marosim o'zbek xalqi hayotining bir qismi sifatida hozirgacha keng nishonlanib kelinadi. O'zbekistonning turli hududlarida beshik to'yi marosimining bir biriga o'xshash va farqli turli shakillarini uchratishimiz mumkin. Bu marosimda bajariladigan urf-odat va udumlar ham rang-barangligi bilan e'tiborlidir.

Xususan, Surxon vohasida beshik to'yi katta tantana va shod-xurramlik bilan o'tkaziladi. Beshik to'yining asosiy rekviziti hisoblangan beshikni asosan, yangi tug'ilgan chaqaloqning ona tomondan bobosi va momosi olib keladi. Bunda bolaning dastlabki vatani bo'lgan beshikni tanlashda ba'zi bir jihatlarga alohida e'tibor berish kerak². Eng avvalo beshik yosh oilaning birinchi farzandi dunyoga kelganda sotib olinadi va undan keying farzandlarga ham nasib qilsin deya niyat qilinadi. Beshik sotib olayotganda savdolashilmaydi. Sotuvchi beshikni qanchaga narxlasa o'sha narxda sotib olinadi. Shuningdek, beshikning sifatiga e'tibor berilishi kerak. Chirigan, suqsoni bor joylari bo'lmasligiga alohida e'tibor berilgan. Bu xalq orasidagi o'ziga xos irim-sirimlar bilan bo'g'liq bo'lib beshik nuqsonsiz

¹ Zuxriddinovich, K. M. (2024). O 'ZBEK PSIXOLOGLARI TADQIQOTLARIDA QADRIYATLARNI OILA BARQARORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMIL SIFATIDA O 'RGANILGANLIGI. *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY*, 3(27), 100-107.

² Dala tadqiqoti materiallari, Surxondaryo viloyati, Boysun va Denov tumanlari. 2024-yil.

<https://scientific-jl.com/>

bo'lasa unda yotgan bola ham nuqsonsiz ulg'ayar ekan³. Bundan tashqari beshikning hajmi keng va pishiq yog'ochdan qilinganiga e'tibor berilgan. Surxon vohasida asosan tut va tol daraxtining yog'ochidan qilingan beshiklar yaxshi beshik sifatida haridorgir bo'lgan. Yaxshi beshik sotib olingandan so'ng, uning ichini turli xil o'yinchoq va shirinliklar bilan to'ldirilib, ustiga beshik yopqichlari yopilib, sarp-sarug'lar bilan olib borilgan.

Kelgan mehmonlarni kutib olish ham o'ziga xos marosimga aylanib ketadi. Beshikni uyga chaqaloqning bobosi yelkalab olib kiradi. O'zbekistonning turli hududlarida, xususan, surxon vohasida ham kelgan mehmonlarning niyati pokligi ramzi sifatida yelkasiga poklik ramzi bo'lgan un tekkizilib kutib olinadi. Shuningdek, Surxon vohasining Boysun, Sherobod kabi tumanlarida kelgan mehmonlar qo'y so'yib ham kutib olinadi. Sababi, xalq e'tiqodiga ko'ra qon ham yorug'liq hisoblanib, biror bir ishni boshlashdan oldin qon chiqarib yuborish hayrli ish hisoblanib elingan⁴. Beshikni dastlab, chaqaloqning bobosi o'ng yelkasiga olib uni chaqaloqning otasining o'ng yelkasiga uzatadi. Shundan so'ng beshikni uyga olib kirishib alohida xonada bolani beshikka belash urf-odatlarini o'tkaziladi. Bu urf-odatlar Buxoroda *gavorabandon* deyilsa, surxon vohasida *bolani yo'rgaklash* marosimi deyiladi. Odatda bu marosimni yoshi ulug', farzandi ko'p kayvoni momolar amalga oshirishgan. Marosim oxirida xonaga boshqalar ham kirib chaqaloqqa sovg'alar va hadyalar berilgan, shuningdek, yaqin qarindoshlar chaqaloq huzuriga, yuz ko'rarga kirib sovg'a berib, beshik ustiga shirinlik sohib baxt tilab chiqib ketadilar.. Beshik to'yi marosimi odatda bola tug'ilganining toq kunlarida 7,9 yoki 11 kunlarida o'tkazilgan. Ayrтим hududlarda esa bolaning suyagi qotgandan keyin ya'ni chilla davri tugagandan keyin ham o'tkazilgan⁵.

Beshik to'yi o'zbek xalqining boy urf-odatlarini va qadriyatlarini o'zida aks ettirgan, bola hayotining ilk qadamlari va oilaning quvonchini ifoda etuvchi eng

³ Yuldosheva, F. (2024). BOLA TUG'ILISHI BILAN BOG'LIQ MAROSIMLAR O'ZBEK XALQI HAYOTINING AJRALMAS QISMI SIFATIDA. *Modern Science and Research*, 3(12), 788-791.

⁴ Kasimova, Z. (2024). BESHIK TO 'YI MAROSIMI FOLKLORINING O 'RGANILISHIGA DOIR. *Farg'ona davlat universiteti*, (2), 178-178.

⁵ Umurqulov K.Ch. (2024). O'ZBEK XALQI OILAVIY MAROSIMLARINING TARBIYAVIY AHAMIYATI. *American journal of religious and cultural studies*, (2), 172-175.

qadimiy marosimlardan biridir. Bu marosim orqali ota-onalar va yaqinlar yangi tug'ilgan chaqaloqqa o'zlarining mehr-muhabbatlarini namoyon etgan va ezgu tilaklar bildirib, uning sog'lom, baxtiyor hayot kechirishini niyat qilishgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Kasimova, Z. (2024). BESHIK TO 'YI MAROSIMI FOLKLORINING O'RGANILISHIGA DOIR. *Farg'ona davlat universiteti*, (2), 178-178.
2. Umurqulov K.Ch. (2024). O'ZBEK XALQI OILAVIY MAROSIMLARINING TARBIYAVIY AHAMIYATI. *American journal of religious and cultural studies*, (2), 172-175.
3. Yuldosheva, F. (2024). BOLA TUG'ILISHI BILAN BOG'LIQ MAROSIMLAR O'ZBEK XALQI HAYOTINING AJRALMAS QISMI SIFATIDA. *Modern Science and Research*, 3(12), 788-791.
4. Zuxriddinovich, K. M. (2024). O 'ZBEK PSIXOLOGLARI TADQIQOTLARIDA QADRIYATLARNI OILA BARQARORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMIL SIFATIDA O 'RGANILGANLIGI. *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY*, 3(27), 100-107.
5. Dala tadqiqoti materiallari, Surxondaryo viloyati, Boysun va Denov tumanlari. 2024-yil.